



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2024- yil yanvar-iyul oylari
uchun dastlabki ma’lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi:
(71) 202-80-44(45)*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-iyul oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 36,8 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,9 mlrd. AQSH dollariga yoki 5,3 % ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **36 835,4 (+5,3 %)**

(2023- y.: **34 975,9**)



Saldo

2024- y.: **-7 263,3** (2023- y.: **-5 067,0**)



Eksport

2024- y.: **14 786,0 (-1,1 %)**

(2023- y.: **14 954,4**)

TSA'dagi ulushi, % da

59,9 %

40,1 %



Import

2024- y.: **22 049,3 (+10,1 %)**

(2023- y.: **20 021,4**)

TSAda eksport hajmi 14 786,0 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 1,1 % ga kamaydi) va import hajmi 22 049,3 mln. AQSH dollariga (10,1 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 7 263,3 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston O'zbekistonning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Rossiyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilish hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.








O'zbekiston Respublikasi jahonning 187 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (18,6 %), Rossiyada (18,5 %), Qozog'istonda (6,2 %), Turkiyada (4,6 %) va Koreya Respublikasida (3,2 %) qayd etilgan.











<p>XXR</p> <p>TSA – 6 850,5</p> <p>Eksport: 1 173,7 Import: 5 676,8</p>  18,6 %	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 6 803,3</p> <p>Eksport: 2 103,5 Import: 4 699,9</p>  18,5 %	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 2 275,1</p> <p>Eksport: 735,4 Import: 1 539,7</p>  6,2 %	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 1 699,2</p> <p>Eksport: 680,0 Import: 1 019,2</p>  4,6 %	<p>Koreya Respublikasi</p> <p>TSA – 1 190,9</p> <p>Eksport: 22,0 Import: 1 168,9</p>  3,2 %
<p>Turkmaniston</p> <p>TSA – 740,8</p> <p>Eksport: 69,8 Import: 671,0</p>  2,0 %	<p>Fransiya</p> <p>TSA – 689,8</p> <p>Eksport: 480,3 Import: 209,5</p>  1,9 %	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 600,9</p> <p>Eksport: 46,4 Import: 468,6</p>  1,6 %	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 572,8</p> <p>Eksport: 555,7 Import: 17,2</p>  1,6 %	<p>AQSH</p> <p>TSA – 553,3</p> <p>Eksport: 185,3 Import: 368,0</p>  1,5 %



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)


Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	5 285,5	6 899,8	6 850,5
 Eksport	1 556,2	1 531,3	1 173,7
Import	3 729,3	5 368,5	5 676,8
Rossiya	4 862,6	5 271,3	6 803,3
 Eksport	1 555,7	1 638,7	2 103,5
Import	3 306,9	3 632,6	4 699,9
Qozog'iston	2 502,6	2 490,3	2 275,1
 Eksport	754,6	807,7	735,4
Import	1 747,9	1 682,7	1 539,7
Turkiya	2 060,4	1 865,5	1 699,2
 Eksport	1 095,9	841,5	680,0
Import	964,6	1 024,0	1 019,2
Koreya Respublikasi	1 444,1	1 271,6	1 190,9
 Eksport	22,1	25,2	22,0
Import	1 422,0	1 246,3	1 168,9
Turkmaniston	549,8	492,4	740,8
 Eksport	133,7	109,1	69,8
Import	416,0	383,3	671,0
Fransiya	183,4	517,6	689,8
 Eksport	67,0	239,5	480,3
Import	116,4	278,1	209,5
Germaniya	641,1	608,9	600,9
 Eksport	52,1	47,9	46,4
Import	589,0	560,9	554,5
Afg'oniston	422,3	470,7	572,8
 Eksport	417,5	466,7	555,7
Import	4,9	4,0	17,2
AQSH	269,0	321,6	553,3
 Eksport	33,3	83,9	185,3
Import	235,7	237,6	368,0

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
 Hindiston	374,0	351,9	461,1
<i>Eksport</i>	18,0	37,0	30,7
<i>Import</i>	356,0	314,9	430,4
 Qirg'iz Respublikasi	660,4	623,2	437,1
<i>Eksport</i>	529,2	463,7	294,0
<i>Import</i>	131,2	159,5	143,0
 Litva	278,9	393,3	435,1
<i>Eksport</i>	42,3	70,3	142,3
<i>Import</i>	236,6	323,0	292,8
 Belarus	252,1	346,3	383,9
<i>Eksport</i>	59,9	79,5	88,4
<i>Import</i>	192,2	266,7	295,5
 BAA	237,0	362,2	382,5
<i>Eksport</i>	62,8	133,4	188,8
<i>Import</i>	174,2	228,7	193,6
 Tojikiston	344,4	416,2	372,5
<i>Eksport</i>	257,7	337,2	286,9
<i>Import</i>	86,8	79,0	85,6
 Braziliya	281,5	416,4	286,7
<i>Eksport</i>	0,3	1,5	5,0
<i>Import</i>	281,2	415,0	281,7
 Chexiya	83,8	202,8	264,0
<i>Eksport</i>	16,1	25,6	33,7
<i>Import</i>	67,7	177,1	230,2
 Eron	281,3	299,9	255,8
<i>Eksport</i>	109,2	110,8	86,8
<i>Import</i>	172,1	189,1	169,1
 Pokiston	128,8	208,2	254,6
<i>Eksport</i>	58,7	122,0	185,0
<i>Import</i>	70,1	86,2	69,6



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI *

(2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH doll.)




Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 39,9 % ulush bilan 14 695,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,6 % ulush bilan 239,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ulushi % da, hajmi mln. AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-iyul oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,3 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 - yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga ko'paydi.

O'zbekiston bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan respublika eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA si 2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga kamaydi va jami TSA dagi ulushi 64,7 % ni tashkil etdi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, 13 020,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 4 940,3 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 8 080,5 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)

Rossiya – 52,2



Qozog'iston – 17,5



Turkmaniston – 5,7



Qirg'iz Respublikasi – 3,4



Belarus – 2,9



Tojikiston – 2,9



Ukraina – 0,9



Ozarbayjon – 0,9



Moldova – 0,1




Armaniston – 0,1



MDHning erkin savdo hududida savdo qilish O'zbekistonning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (52,2 %), Qozog'iston (17,5 %) hamda Turkmaniston (5,7 %) davlatlari bilan qayd etildi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YEOIIGA A‘ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 9 913,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 3 230,5 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 6 682,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a‘zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog‘iston, Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta‘minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 6 085 taga yetdi va ular tomonidan 10 591,8 mln. AQSH dollari (*nomonetar oltindan tashqari*) qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan 10,9 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul ulushi % da)



*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navba-tida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilina-digan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	14954,4	14786,0	131,0	98,9	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 028,9	1 085,4	131,8	105,5	6,9	7,3
Ichimliklar va tamaki	72,4	70,0	124,6	96,7	0,5	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	170,2	183,3	73,2	107,7	1,1	1,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	532,0	793,0	79,3	149,1	3,6	5,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	6,6	23,2	33,8	352,4	0,0	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	692,0	936,0	95,4	135,3	4,6	6,3
Sanoat tovarlari	2 440,0	2 477,1	90,6	101,5	16,3	16,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	682,8	650,1	145,9	95,2	4,6	4,4
Turli xil tayyor buyumlar	733,0	633,8	126,6	86,5	4,9	4,3
Boshqa tovarlar	5 660,4	4 225,9	190,1	74,7	37,9	28,6
<i>shu jumladan: nomonetar oltin</i>	<i>5 637,5</i>	<i>4 194,5</i>	<i>189,8</i>	<i>74,4</i>	<i>37,7</i>	<i>28,4</i>
Xizmatlar	2 936,0	3 708,2	133,0	126,3	19,6	25,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 74,9 % ni tashkil etib, ular boshqa tovarlar (38,6 %), sanoat tovarlari (16,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,3 %) va kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,3 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI
TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul)

 XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 085,4	105,5
Sabzavotlar va mevalar	801,9	116,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	195,6	69,6
Go'sht va go'sht mahsulotlari	20,4	13,1 m.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	19,3	199,8
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	14,3	91,6
Hayvonlar uchun oзуqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	13,8	87,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	9,0	109,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	5,4	128,2
Tirik hayvonlar	5,0	140,6
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	0,9	107,8
Ichimliklar va tamaki	70,0	96,7
Tamaki va tamaki mahsulotlari	41,0	144,9
Ichimliklar	29,0	65,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	183,3	107,7
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	70,1	102,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	43,3	145,7
Metall rudalari va metall parchalari	24,4	98,6
Qog'oz massasi va makulatura	18,5	76,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	17,0	114,8
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	8,6	143,9
Tabiiy kauchuk	1,0	2,3 p.
Probka va yog'och-taxtalar	0,4	19,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	793,0	149,1
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	399,9	2,8 m.
Tabiiy yoki sun'iy gaz	323,1	94,5
Elektr toki	68,6	145,3
Ko'mir, koks va briketlar	1,4	9,2 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	23,2	3,5 m.
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	23,1	3,6 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	0,1	66,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	936,0	135,3
Noorganik kimyo moddalari	516,2	177,3
O'g'itlar	184,0	119,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	142,3	101,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	26,1	59,8
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	20,1	103,6
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	14,2	113,9
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	12,5	125,0
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	11,3	79,7
Organik kimyo moddalari	9,2	135,5


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	2 477,1	101,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 223,6	98,2
Rangli metallar	862,5	106,5
Cho'yan va po'lat	124,0	91,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	109,4	123,2
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	84,3	109,4
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	27,0	58,9
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	25,0	105,5
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	11,0	139,8
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	10,2	156,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	650,1	95,2
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	199,5	76,7
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	134,0	65,8
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	116,5	89,3
Boshqa transport uskunolari	112,0	4,3 p.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	86,0	89,8
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	52,4	165,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	44,5	86,7
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	32,1	48,8
Kanselyariya tovarlari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	5,1	25,2
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2,0	166,9
Turli xil tayyor buyumlar	633,8	86,5
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	526,6	84,3
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	68,9	126,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	10,0	102,3
Poyabzal	9,7	43,8
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	8,9	118,5
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	5,2	78,7
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	3,7	57,5
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	0,9	56,4
Boshqa tovarlar	4 225,9	74,7
Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	4 194,5	74,4

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga oshgan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ulushi % da, hajmi mln. AQSH dollarida)



2024-yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 40,7 % ni tashkil etdi.



RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, % da)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI *(yanvar-iyul)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Egallab turgan o‘rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya	1 638,7	2 103,5	105,3	128,4	1	1
XXR	1 531,3	1 173,7	98,4	76,6	2	2
Qozog‘iston	807,7	735,4	107,0	91,0	4	3
Turkiya	841,5	680,0	76,8	80,8	3	4
Afg‘oniston	466,7	555,7	111,8	119,1	5	5
Fransiya	239,5	480,3	357,4	200,5	8	6
Qirg‘iz Respublikasi	463,7	294,0	87,6	63,4	6	7
Tojikiston	337,2	286,9	130,9	85,1	7	8
BAA	133,4	188,8	212,5	141,5	9	9
AQSH	83,9	185,3	251,8	220,7	13	10
Pokiston	122,0	185,0	207,8	151,6	10	11
Litva	70,3	142,3	166,1	202,5	16	12
Buyuk Biritaniya	66,5	102,8	154,3	154,5	17	13
Ozarbayjon	72,9	97,4	100,9	133,7	15	14
Belarus	79,5	88,4	132,8	111,2	14	15
Eron	110,8	86,8	101,4	78,3	11	16
Turkmaniston	109,1	69,8	81,6	64,0	12	17
Polsha	61,0	58,8	74,1	96,4	19	18
Latviya	61,5	55,6	111,1	90,3	18	19
Germaniya	47,9	46,4	92,0	96,8	21	20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2024- yil yanvar-iyul, mln.AQSH doll.)



Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 21,2 % bilan 3 127,8 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Jizzax viloyati 0,8 % bilan 116,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI













Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyul oylarida 1 214,9 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,1 % yoki 91,3 ming tonnaga ko'paydi.

2024- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 792,3 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 17,7 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (43,4 %), Pokiston (15,3 %), Qozog'iston (15,3 %), hamda Afg'oniston (5,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-iyul, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>18,3 mln. AQSH dollari</p> <p>15,5 ming tonna</p> <p> - 18,2 % ↓</p>	<p>Karam</p> <p>42,2 mln. AQSH dollari</p> <p>160,8 ming tonna</p> <p> 2,0 m. ↑</p>	<p>Piyoz</p> <p>58,3 mln. AQSH dollari</p> <p>298,7 ming tonna</p> <p> 12,3 % ↑</p>	<p>Gilos va olcha</p> <p>73,5 mln. AQSH dollari</p> <p>34,5 ming tonna</p> <p> 36,6 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>25,1 mln. AQSH dollari</p> <p>17,0 ming tonna</p> <p> - 35,0 % ↓</p>	<p>O'rik</p> <p>61,7 mln. AQSH dollari</p> <p>64,1 ming tonna</p> <p> 51,5 % ↑</p>	<p>Loviya</p> <p>117,0 mln. AQSH dollari</p> <p>28,5 ming tonna</p> <p> 36,3 % ↑</p>	<p>Olxo'ri quritilgan</p> <p>16,7 mln. AQSH dollari</p> <p>11,5 ming tonna</p> <p> - 34,0 % ↓</p>
<p>Tariq</p> <p>23,8 mln. AQSH dollari</p> <p>9,7 ming tonna</p> <p> 22,6 % ↑</p>	<p>Bodring</p> <p>3,8 mln. AQSH dollari</p> <p>5,1 ming tonna</p> <p> - 26,2 % ↓</p>	<p>Yeryong'oq</p> <p>6,5 mln. AQSH dollari</p> <p>4,9 ming tonna</p> <p> 56,6 % ↑</p>	<p>Qalampir</p> <p>5,2 mln. AQSH dollari</p> <p>3,7 ming tonna</p> <p> - 18,9 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-iyul)

Davlatlar	Ming tonna	Mln. AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	468,3	343,9	43,4
 Pokiston	94,7	121,4	15,3
 Qozog'iston	378,7	121,4	15,3
 Afg'oniston	36,6	46,6	5,9
 XXR	46,7	38,0	4,8
 Qirg'iz Respublikasi	93,6	33,8	4,3
 Turkiya	10,8	19,1	2,4
 Belarus	11,7	8,7	1,1
 Ozarbayjon	5,6	8,4	1,1
 Iroq	13,8	6,5	0,8
 Gruziya	6,1	5,4	0,7
 Ukraina	6,4	5,1	0,6
 BAA	10,0	4,5	0,6
 Eron	4,3	4,2	0,5
 Latviya	7,8	3,4	0,4
 Boshqa davlatlar	19,7	21,9	2,8

* qiymat ifodasidan

2024- yil yanvar-iyul oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 43,4 % ini), bu esa Pokiston eksport hajmiga nisbatan 2,8 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-iyul oylari yakuni bo‘yicha 1 777,6 mln. AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 12,0 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 4,4 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (45,8 %), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (38,5 %) asosiy ulushni egallagan. 2024 - yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 55 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollari)



1 777,6 (2023 y. – 1 860,3)

Jami



813,4 (748,9)

Ip kalava



684,9 (774,4)

Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari



169,3 (194,7)

Trikotaj mato



86,3 (105,6)

Gazlamalar




23,8 (36,7)

Paypoq mahsulotlari

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 3 708,2 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 25,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 26,3 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (47,1 %), safarlar (turizm) (37,8 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,1 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (2,9 %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (4,1 %)ni tashkil etib, tarkibida eng yuqori ulushlar sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (1,1 %), moliyaviy xizmatlar (1,1 %) hamda intellektual mulkdan foydalanganlik uchun yig'imlar (0,7 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 22 049,3 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,1 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (35,4 %), sanoat tovarlari (15,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (12,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)



9,2

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,6

2. Ichimliklar va tamaki



2,7

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



11,2

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,9

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



12,4

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



15,1

7. Sanoat tovarlari



35,4

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



3,6

9. Turli xil tayyor buyumlar



0,2

10. Boshqa tovarlar



8,6

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 380,3 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 20 146,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 1 903,2 mln. AQSH dollariga yetdi.

**Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navba-tida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilina-digan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	20 021,4	22 049,3	118,1	110,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 961,7	2 038,5	107,3	103,9	9,8	9,2
Ichimliklar va tamaki	104,8	140,4	147,0	133,9	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	657,8	591,0	93,3	89,8	3,3	2,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1 384,1	2 465,6	154,8	178,1	6,9	11,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	238,4	192,0	144,4	80,6	1,2	0,9
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 708,9	2 738,6	113,5	101,1	13,5	12,4
Sanoat tovarlari	3 388,6	3 330,4	106,2	98,3	16,9	15,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	7 519,7	7 805,7	133,8	103,8	37,6	35,4
Turli xil tayyor buyumlar	755,1	798,4	111,1	105,7	3,8	3,6
Boshqa tovarlar	46,8	45,5	206,4	97,2	0,2	0,2
Xizmatlar	1 255,6	1 903,2	90,0	151,6	6,3	8,6

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul)

 XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2 038,5	103,9
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	504,6	75,4
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	367,0	112,5
Sabzavotlar va mevalar	254,1	130,0
Go'sht va go'sht mahsulotlari	242,0	141,3
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	223,8	112,7
Hayvonlar uchun oзуqalar	159,1	124,4
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	122,5	100,5
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	84,9	90,2
Tirik hayvonlar	61,1	146,5
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	19,4	126,4
Ichimliklar va tamaki	140,4	133,9
Ichimliklar	103,2	148,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	37,2	106,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	591,0	89,8
Probka va yog'och-taxtalar	226,6	98,1
Metall rudalari va metall parchalari	164,6	79,4
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	45,4	94,4
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	43,1	99,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	37,4	101,7
Qog'oz massasi va makulatura	29,3	96,5
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	26,5	68,5
Tabiiy kauchuk	17,8	79,7
Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan	0,3	2,8 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2 465,6	178,1
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 304,4	129,7
Tabiiy yoki sun'iy gaz	983,7	4,9 m.
Ko'mir, koks va briketlar	96,0	98,0
Elektr toki	81,6	102,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	192,0	80,6
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	167,6	85,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	23,8	58,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 738,6	101,1
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 046,6	124,6
Birlamchi shakldagi plastmassalar	441,9	87,0
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	391,8	110,7
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	301,8	112,0
Noorganik kimyo moddalari	156,4	75,7
Organik kimyo moddalari	155,5	85,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	154,7	90,3
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	55,6	89,5
O'g'itlar	34,3	30,0


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	3 330,4	98,3
Cho'yan va po'lat	1 475,4	109,1
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	461,6	99,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	312,4	82,1
Rezina buyumlari	241,6	80,1
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	226,9	80,1
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	217,4	104,1
Rangli metallar	202,4	110,8
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	191,5	89,3
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	1,2	97,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	7 805,7	103,8
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	1 858,0	79,8
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	819,0	98,4
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	677,8	86,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	1 468,5	101,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 202,8	101,0
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 134,6	163,8
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	629,7	151,2
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	545,7	101,1
Boshqa transport uskunolari	500,5	93,5
<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>	341,4	70,8
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	283,1	118,7
Metallarni qayta ishlash mashinalari	182,8	140,1
	798,4	105,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	260,8	96,8
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	257,3	114,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	83,2	91,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	80,5	95,9
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	68,3	162,7
Poyabzal	23,3	116,0
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	13,1	99,7
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	11,9	115,6

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-iyul natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 36,6 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ulushi % da, hajmi mln. AQSH dollarida)



2024- yil yanvar-iyul oylarida O'zbekiston Respublikasi 164 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.



RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, % da)






O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR‘ATLARI (yanvar-iyul)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da		Umumiy hajmdagi o‘rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	5 368,5	5 676,8	144,0	105,7	1	1
Rossiya	3 632,6	4 699,9	109,9	129,4	2	2
Qozog‘iston	1 682,7	1 539,7	96,3	91,5	3	3
Koreya Respublikasi	1 246,3	1 168,9	87,6	93,8	4	4
Turkiya	1 024,0	1 019,2	106,2	99,5	5	5
Turkmaniston	383,3	671,0	92,1	175,0	8	6
Germaniya	560,9	554,5	95,2	98,9	6	7
Hindiston	314,9	430,4	88,5	136,7	11	8
AQSH	237,6	368,0	100,8	154,9	15	9
Belarus	266,7	295,5	138,8	110,8	13	10
Litva	323,0	292,8	136,5	90,6	10	11
Braziliya	415,0	281,7	147,5	67,9	7	12
Chexiya	177,1	230,2	2,6 m.	130,0	22	13
Italiya	233,1	222,9	114,2	95,6	16	14
Yaponiya	95,3	219,6	78,4	2,3 m.	28	15
Fransiya	278,1	209,5	2,4 m.	75,3	12	16
BAA	228,7	193,6	131,3	84,7	17	17
Eron	189,1	169,1	109,9	89,4	19	18
Shveysariya	207,1	159,8	144,6	77,1	18	19
Polsha	180,8	159,3	178,3	88,1	21	20



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORT HAJMI (2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH doll.)




Respublika importi tarkibida eng yuqori ulushni Toshkent shahri 52,5 % bilan 11 568,0 mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Surxondaryo viloyati 0,4 % bilan 85,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul, mln. AQSH dollarida)



2024-yilning yanvar-iyul oyi yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 1 903,2 mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining 8,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 51,6 % ga ko'paydi.


Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa safarlar (turizm xizmatlari) (52,5%), transport xizmatlari (21,3%), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (10,0%) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (5,8 %)ga tegishli bo'ldi.

Shuningdek, boshqa xizmatlar ulushi jami xizmatlar importining 10,4 % ini tashkil etib, uning tarkibida yuqori ulushlarni boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (3,9 %), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2,8%), sug'urta va pensiya ta'minoti xizmatlari (1,4%) va boshqalar tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2024- yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 3 330,4 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 % ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 15,1 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyul)

1 231,9 mln. AQSH doll.
Ulushi – 37,0 %



Rossiya

1 040,6 mln. AQSH
doll. *Ulushi – 31,2 %*



XXR

379,3 mln. AQSH
doll. *Ulushi – 11,4 %*



Qozog'iston

171,7 mln. AQSH
doll. *Ulushi – 5,2 %*



Turkiya

87,9 mln. AQSH
doll. *Ulushi – 2,6 %*



Koreya
Respublikasi

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (1 475,4 mln. AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (461,6 mln. AQSH dollari), yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (312,4 mln. AQSH dollari), rezina buyumlari (241,6 mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.